

BOLANING IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING O'RNI

TAFU PPWK-22-03 guruh talabasi

Sadikova Xurshidaxon Abdujalilovna

Elektron manzil: hurshida1234sadikova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Xusanbayeva Ziyoda

Annotasiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda boal tarbiyasida oilaning eng muhim, maskan ekanligi uning mustahkamligi bevosita bola hayotining keyingi bosqichiga ta'sir o'tkazishi haqida fikrlar yoritilgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oilaning o'rni va unga qo'yiladigan talablar, bola tarbiyasida yuzaga kelib chiqadigan muammo va ularni bartaraf etish yo'llari haqida muloxazalar va takliflar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *Oila, farzand, ijtimoiylashuv, bolalik, olivay munosabatlar.*

Аннотация: *В данной статье освещаются идеи о том, что семья сегодня является важнейшей, обителью в воспитании Боал, ее прочность напрямую влияет на следующий этап жизни ребенка, приводятся соображения и предложения о роли семьи в патриотическом воспитании молодежи и предъявляемых к ней требованиях, о проблемах, возникающих в воспитании ребенка, и о путях их преодоления*

Ключевые слова: *семья, ребенок, социализация, детство, оливоай отношения.*

Annotation: *This article highlights the opinion that today the most important, resident of the family in the upbringing of boal is its strength, which directly affects the next stage of a child's life, the role of the family in the upbringing of young people in the spirit of patriotism and the requirements for it, the problem that arises in the upbringing of children and.*

Keywords: *family, child, socialization, childhood, olivay relationship.*

Mamlakatimiz kelajagi, ravnaqini mustahkamlaydigan avlod avvalo oilada shakllanadi. Hukumatimiz tomonidan ona va bola sog'lig'ini mustahkamlashga, ona va bolani parvarish qilish tizimini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bolaning jamiyatga integratsiyalashida unga moslashishida, ijtimoiylashuvda oila juda muhim o'rin tutadi. Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik

ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rmini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. bolaning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi: ijtimoiylashuv va individualizatsiyalanish. Agar sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda o'z navbatida bola o'zining ham individual xususiyatlarini sotsiumga qo'shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi. Bu jarayonlar spontan, stixiyali va tartibsiz holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma'lum maqsadga yo'naltirilib ham borilishi mumkin. Bu jarayon esa tarbiyalash deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil faoliyati esa o'z-o'zini, tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarining va tarbiyachilarning harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan.

An'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida bolani Vatanga va xalqqa muhabbat, sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahallalarning roli kuchaytirish, mustahkam va sog'lom oilani shakllantirish uchun esa zarur sharoitlar yaratish, bolani tarbiyalash jismoniy va ma'naviy

rivojlantirishda ona va bolaning rolini kuchaytirish kabi vazifalarni to'liq amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yosh avlod hayotning ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan bola turmushining murakkab tomonlari bilan huddi shu jamoada tanishadi. Shuning uchun ham oila jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida bolalarning axloqi, yurish turishi, hatti-harakatlari, e'tiqod va dunyoqarashiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi hamda ularni turmush qurishga tayyorlab borishi lozim.

Mamlakatimizda oila masalasiga alohida e'tibor berayotganligi bejiz emas, albatta. Yurtimizning porloq ertasining zamini jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lishi oilada yaratiladi.

Oila shunday muqaddas makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, ahloqiy ma'naviy qadriyatlarimiz saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkamlanadi.

Ma'naviy yetuk oila – ma'naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila – tarbiya o'chog'idir. Demak oilada ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi oila yilida amalga oshiriladigan muhim ish yo'nalishlardan biridir.

Bolalarda manfaatdorlik, ishbilarmonlik hissini tarbiyalash o'zbek oilalarda juda qadimdan mavjud. Uning barcha jihatlari oila hayotida namoyon bo'lib kelgan va ma'naviy qadriyat sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bugungi kunga bu qadriyatlar o'zining barcha qirralarini ko'rsatib, yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishining muhim omili hisoblanib kelmoqda.

Bolalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash ularning milliy g'urur, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Bolaga Vatanga mehr g'oyasini singdirish, millat o'tmishiga, uning qadriyatlariga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalashdan kelib chiqadi. Ota-onani bolaga, bolani ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbati Vatanga bo'lgan muhabbat bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Mustaqillik sharoitida oila, oilaviy

munosabatlar va oilaviy tarbiyaga yangicha yondashishning mohiyati ham ana shundadir.

Bolalarni mustaqillik ruhida, yangicha fikrlovchi va yetuk shaxslarni tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qaytadan ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asosda maqsad va vazifalarni ham ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy-pedagogik zaruriyatdir.

O'zbek oilalarda keng tarqalgan halollik, to'g'rilik, birovlar haqiga hiyonat qilmaslik, xayri-ehson, sohovat va muruvvat, tejamkorlik va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadriyatlar zahirida shakllangan va ular oilaviy tarbiya natijasida ota-onalaridan bolalariga o'tib ularning ma'naviy dunyosini boyitgan.

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mahallalarining roli katta. Chunki, qadimdan o'zbek mahallalari o'z-o'zini boshqaruv shakli sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish maskaniga aylangan. Ayniqsa, mahalla oqsoqqollari oilalarni inoq va hamjihat bo'lib yashashga alohida e'tibor berganlar. Oilaviy nizolarni mahalla faollari bartaraf etganlar. Mahalla bolalarning tarbiyasi ham ularning e'tiboridan chetda qolmagan. Shunga ko'ra, mahalla o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynab kelayotgan va milliy qadriyatga aylangan ijtimoiy-siyosiy tuzilmadir. Mahallada tarbiyaviy ishlar birinchi maqsadga qaratilgan holda olib borilishi, ularning obruyini ta'minlash va oilani mustahkamlash borasidagi faoliyatini muvaffaqilashtirish zarur bo'ladi. Oila-maktab-mahalla hamkorligini ta'minlaydigan ilmiy konsepsiya ishlab chiqilishi va uni amalga oshirishni ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy tizim - Mahalla jamg'armasi faoliyatini aktivlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Farzand oldidagi burchini to'liq ado etish ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Farzandni sog'lom dunyoga keltirish, unga chiroyli ism qo'yish, tarbiya berish, ilm o'rgatish, kasb-hunarli qilish, balog'atga yetganda uylantirish yoki turmushga berish, hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish shular jumlasidandir.

Yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli, u o'z xususiyatiga ko'ra, biror salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor. Tarbiyaning asosiy maqsadi bolani vatanga, xalqqa sadoqatli qilib kamol toptirishdir.

Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagilarni hisobga olish:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;
- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bola jamiyatga qo'shilishi yani ijtimoiylashuvida oila muhim o'rin tutadi. Ammo har joyda kamchilik va xatolar bo'lganligi sababli oilada ota-onalarda ijtimoiy pedagogika yetishmasligi

sababdan bolaning ijtimoiylashuvida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bu borada oilalar bilan tushuntirish ishlari olib borish lozim. Mening taklifim shundan iboratki ota ona bo'lish arafasida turgan har bir yosh ota-onaga pedagogik ta'lim tarbiya berish bolani tarbiyasi, ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi o'quv dasturlar yaratish lozim. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalarida bu haqida teleko'rsatuvlar eshittirishlarni ko'proq olib borish lozim chunki hozirgi kun bolalari har doim yangilikka intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev Ye.G'. Muomala psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2001.
2. Raximova T. “Istiqlol farzandlarimiz”. – T.: 2004 yil
3. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. O.To'rayeva. Tosh-t. O'qit. 1990.y.
4. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. 2022.
5. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – 24 b.